



ISSN 2181-9556

Doi Journal 10.26739/2181-9556

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2024

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тилипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Абдуллаев Сардорбек Усмонхуджаевич
доктор философии по социологическим наукам, доцент
(Узбекистан)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: @devdasdesign

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Alikariyev Nuriddin OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI MEHNAT SAMARADORLIGINING TAHLILI.....	4
2. Parmanov Farxod, Xudayarov Ixomjon SOTSIAL MOBILLIK PARADIGMASINING ETNOMADANIY INTEGRATSIYALASHUV TENDENSIYALARI.....	12
3. Турсунов Диёр, Сеитов Азамат ВЛИЯНИЕ ИНТЕРНЕТ-СМИ НА ПОЛИТИЧЕСКУЮ СОЦИАЛИЗАЦИЮ (НА ПРИМЕРЕ ПРОТЕСТОВ В РОССИИ 2017-2018 ГОДА).....	19
4. Sog'inov Nurmat AMALIYOTCHI PSIXOLOG MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI.....	29
5. Zaitov Elyor MAHALLANING O'RGANILISHIDA TARIXIY YONDASHUV.....	38
6. Алексеева Виктория СОЦИАЛЬНАЯ МОБИЛЬНОСТЬ ЖЕНЩИН В УСЛОВИЯХ ФОРМИРУЮЩЕГОСЯ ГЕНДЕРНОГО ПОРЯДКА ДОСТИЖЕНИЯ РАВЕНСТВА.....	49
7. Kayumov Kaxramon DEVIANT HULQ-ATVOR PROFILAKTIKASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	57
8. Abdullaev Akmal Gadaymurodovich SIVILIZATSION YONDASHUV SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARNING METODOLOGIK BAZASI SIFATIDA.....	63
9. Mahammadjanov G'olibjon GLOBALLASHUV DAVRIDA JAMIYATDA IJTIMOIIY ONG TIZIMIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARI (Sinergetik yondashuv).....	71
10. Qozoqov Sobirjon O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING IJTIMOIIY OMILLARI.....	76
11. Нуруллаева Джамиля СПОРТ КАК СОЦИАЛЬНОЕ ЯВЛЕНИЕ.....	83
12. Mahammadjanov G'olibjon JAMIYATDA IJTIMOIIY ONG TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR: SOTSIOLOGIK YONDASHUV VA TAHLIL.....	90

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Qozoqov Sobirjon,
Namangan davlat universiteti,
PhD, katta o'qituvchi
e-mail: sqozaqov@mail.ru

О‘ЗБЕКISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING IJTIMOIY OMILLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.11052539>

ANNOTATSIYA

Maqolada mamlakatimizdagi islohotlar sharoitida tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun yaratib berilayotgan shart-sharoitlar, davlat tomonidan qabul qilinayotgan institutsional asoslar va ularni rivojlantirishga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar tahlil qilingan. Muallif maqolada tadbirkorlik tushunchasi, uning funktsiyalari, elementlari va jamiyat taraqqiyotiga xususiy tadbirkorlik faoliyatining ta’siri yoritib berilgan. Ayniqsa, tadbirkorlik tushunchasini yoritishda bu faoliyatning murakkab jarayon ekanligiga alohida urg‘u berilgan va uning bir tomonlama faoliyat turi emasligiga e’tibor qaratilgan. Sababi, tadbirkorlik faoliyati jamiyatdagi turli munosabatlar, ya’ni shaxslararo, guruhlararo, institutlararo va ijtimoiy munosabatlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Shu uchun ham, bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlik faoliyati jamiyat a’zolarining asosiy daromad manbai hisoblanish bilan birgalikda, davlat iqtisodiy taraqqiyotining asosini ham tashkil etishi batafsil ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy o‘zgarishlar, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, tadbirkorlik, kontragent, elektron texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, mehnat resurslari, yashirin iqtisodiyot, soliq imtiyozlari, davlat soliq siyosati.

Казаков Собиржон,
Наманганский государственный университет,
PhD, старший преподаватель
e-mail: sqozaqov@mail.ru

СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ПОДДЕРЖКИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются условия, созданные для поддержки предпринимательства в условиях реформ в нашей стране, институциональные основы, принятые государством, и социальные факторы, влияющие на их развитие. В статье раскрыто понятие предпринимательства, его функции, элементы, а также влияние частного предпринимательства на развитие общества. В частности, при объяснении понятия предпринимательства особое внимание уделяется тому, что эта деятельность представляет собой сложный процесс и обращается внимание на то, что она не является односторонним процессом. Предпринимательская деятельность включает в себя различные отношения в

обществе, то есть межличностные, межгрупповые, межинституциональные и социальные отношения. По этой причине в условиях рыночных отношений предпринимательство играет ключевую роль, являясь не только основным источником дохода членов общества, но и основой экономического развития государства.

Ключевые слова: социальные изменения, социально-экономическое развитие, предпринимательство, контрагент, электронные технологии, цифровая экономика, трудовые ресурсы, скрытая экономика, налоговые льготы, государственная налоговая политика.

Kozokov Sobirjon,
Namangan State University,
PhD, senior lecturer
e-mail: sqozaqov@mail.ru

SOCIAL FACTORS SUPPORTING ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN

ABSTRACT

The article analyzes the conditions created to support entrepreneurship in the context of reforms in our country, the institutional framework adopted by the state, and social factors influencing their development. The article reveals the concept of entrepreneurship, its functions, elements, as well as the influence of private entrepreneurship on the development of society. In particular, when explaining the concept of entrepreneurship, special attention is paid to the fact that this activity is a complex process and attention is drawn to the fact that it is not a one-way process. Entrepreneurial activity includes various relations in society, that is, interpersonal, intergroup, interinstitutional and social relations. For this reason, in conditions of market relations, entrepreneurship plays a key role, being not only the main source of income for members of society, but also the basis for the economic development of the state.

Key words: Social changes, socio-economic development, entrepreneurship, counterparty, electronic technologies, digital economy, labor resources, hidden economy, tax incentives, state tax policy.

KIRISH

Yangi O‘zbekistondagi bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Chunki, tadbirkorlik faoliyati muntazam ravishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga muxtoj sohalardan biri hisoblanadi. Bu esa, tadbirkorlik faoliyatining yangi qirralarini ochib bermoqda va shu orqali aholi o‘rtasida tadbirkorlik faoliyatining yangi ko‘rinishlari vujudga kelmoqda. Shuning uchun ham tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy omillarini o‘rganish doirasida ilmiy izlanishlar olib borish belgilangan. Tadqiqotdan ko‘zlangan maqsad Yangilanayotgan O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy omillarini ilmiy tahlil etish hisoblanadi.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy omillarini o‘rganishning dolzarbligi qator obyektiv sabablar bilan xarakterlanadi. Birinchidan, mazkur muammoni Yangilanayotgan O‘zbekiston hududida sotsiologiya fani doirasida kam o‘rganilganligi tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini tadqiq etishga chorlaydi. Ikkinchidan, tadqiqot natijalari Yangilanayotgan O‘zbekistondagi tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashda qo‘shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Uchinchidan, tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonlarini izchil va mukammal amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi. To‘rtinchidan, izlanish doirasida tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini o‘rganish, mohiyatini tahlil qilish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar davrida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotni yoritishda tarixiylik, mantiqiylik, so‘rov anketa, kuzatish, qiyosiy tahlil, kontent-analiz, ekspert baholash usullaridan foydalanildi.

Shuning uchun ham tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tushunchasini ilmiy ta‘rifini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash – tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, amalga oshirish va rivojlanishiga davlatning huquqiy, tashkiliy, moliyaviy, ilmiy-texnikaviy, tashqi bozorga chiqishga, resurslar, mutaxassislar, axborot ta‘minotiga ko‘maklashishidan iboratdir [1, – B.135].

Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda davlat tomonidan dasturlar ishlab chiqiladi. Shu asosida respublikada tadbirkorlikni rivojlantirish va takomillashtirishga yo‘naltirilgan vazifalar, chora-tadbirlar belgilab olinadi.

ASOSIY QISM

Mamlakatimizdagi islohotlar sharoitida tadbirkorlik faoliyati muhim o‘rinni egallaganligi uchun ham tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash har bir davlatning oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki, tadbirkorlik faoliyati murakkab jarayon bo‘lib, u bir tomonlama faoliyat turi hisoblanmaydi. Sababi, tadbirkorlik faoliyati jamiyatdagi turli munosabatlar, ya‘ni shaxslararo, guruhlararo, institutlararo va ijtimoiy munosabatlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Shu sababdan, bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlik faoliyati jamiyat a‘zolarining asosiy daromad manbai hisoblanish bilan birgalikda, davlat iqtisodiy taraqqiyotining asosini ham tashkil etadi. Shuning uchun ham har bir davlat tadbirkorlik faoliyatini muntazam ravishda huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi. Buning natijasida, tadbirkor shaxsda o‘z faoliyatini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha motivatsiya vujudga keladi. Bunda, tadbirkor shaxsning davlatga bo‘lgan ishonchi ortishi bilan birgalikda, tadbirkor o‘zida mulkiy javobgarlikni his etib ish yuritadi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda ham tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va bu sektorni davlat tomonidan tartibga solish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirildi. Buning natijasida esa, mamlakatda ishbilarmonlik muhiti kengayib bormoqda. Biroq tanqidiy jihatdan yondashilsa, “...xususiy mulk va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va ularning ta‘sirchan himoyasini ta‘minlash” [2, – B.39.] masalalarida hali yechimini kutayotgan qator muammolar bor. Ushbu muammolarni xalq etishda xorijiy tajribalarning u yoki bu jihatlarni o‘rganish va maqbul chora-tadbirlarni qo‘llash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ma‘lumki, hozirgi sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bozor iqtisodiyotining zarur elementlari qatoriga kiradi. Bozor munosabatlari sharoitida xususiy sektor, xo‘jalik yuritish tuzilmasi tarkibidan yuqori o‘rin olib, iqtisodiy o‘sish sur‘atlariga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga e‘tibor berilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida to‘xtalib, quyidagicha fikr bildirgan edi: “Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farvonligini ta‘minlashning eng samarali yo‘li bu – tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash ekanini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda” [3, – B.67].

Mana shu omilarni inobatga olib mamlakatimizda ham tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratildi. Buning uchun mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun institutsional asoslar yaratildi. Bunga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlarni misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin. Masalan: 2022-yil 9-iyundagi PF-150-son “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 25-martda qabul qilingan PF-43-son “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim xujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” Prezident farmoni va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Davlat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlanishi har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga o‘zining ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi. Shu sababdan har bir davlat tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun davlat dasturlarini ishlab chiqadi. Bu dasturlardan ko‘zlangan

maqsad, tadbirkorlik faoliyatini yuqori ko'rsatkichlarga olib chiqishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasida ham jahon tajribasidan kelib chiqqan holda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni rivojlantirish uchun "Har bir oila-tadbirkor", "Yoshlar-kelajagimiz" davlat dasturlarini ishlab chiqdi. Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun bu davlat dasturlariga qo'shimcha sifatida quyidagi dasturlarni ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ishlab chiqargan mahsulotlarini xorijiy mamlakatlarga eksport qiladigan tadbirkorlar uchun soliq va moliyaviy imtiyozlar ishlab chiqish. Bu esa, tadbirkorlarning ishlab chiqargan mahsulotining tan narxining arzon bo'lishini ta'minlaydi va ularning xorijiy mamlakatlarda muntazam ravishda o'z haridorlariga ega bo'lishiga ko'maklashadi;

- axborot strukturasi va bozor sharoitlari, tovar va xizmatlar sotish bo'yicha eng ko'p ma'lumotlarga ega bo'lishi. Tadbirkor xorijdagi xaridorlari to'g'risida ko'p ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Chunki, ma'lumotlar bazasi qancha ko'p bo'lsa, tadbirkor xaridorga qancha mahsulot, qachon va qanday narxda kerakligi to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi. Tadbirkor faoliyatini mana shu tarzda tashkil etsagina, uning faoliyatida o'sish bo'ladi;

- xususiy tadbirkorlarning eksport salohiyatini rivojlantirish maqsadida kreditlash zarur. Chunki, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun doim mablag' kerak bo'ladi. Agar tadbirkor yetarli mablag'ga ega bo'lsagina, uning faoliyatida uzilish bo'lmaydi va xorijiy mamlakatlarning tadbirkorlari bilan ham bema'lol raqobatlasha oladi. Tadbirkorlik faoliyati mana shu darajaga ko'tarilsagina "Made in Uzbekistan" brendini butun dunyoga yoyish mumkin;

- tadbirkorlik faoliyatidagi innovatsiyalarni rag'batlantirish. Tadbirkorlik faoliyatining o'ziga xos xususiyati doim yangi g'oya va ixtirolar asosida shakllanishidir. Shuning uchun kichik biznes korxonalarida bu yangiliklarni sinovdan o'tkazish katta mablag' talab etmasligi bilan ajralib turadi;

- tadbirkorlarni muntazam ravishda tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ta'lim olishlarini ta'minlash zarur. Chunki, tadbirkor bunda tashqi bozor talab va takliflarini o'rganib boradi va shu asosda o'z faoliyatining kelajagini kafolatlaydi.

O'zbekistonda ham xususiy tadbirkorlik faoliyati iqtisodiyotning muhim sektori hisoblanadi. Buni biz hozirgi kunda respublikamizda 525 mingdan ortiq tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritayotganligidan ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizda ishlab chiqarish sektorining asosiy qismini tadbirkorlik faoliyati sektoriga to'g'ri kelayotganligini quyidagi ko'rsatkichlar ham ko'rsatib turibdi. Tadbirkorlik faoliyatining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 60 foizga yetdi. Aholining 78 foizi aynan shu tarmoqda mehnat qilib, mamlakatimiz rivojiga munosib hissa qo'shmoqda [4, – B.68]. Shuningdek, mamlakatning sanoat mahsulotlari hajmining uchdan birini, qishloq xo'jaligi mahsulotining 98 foizini, investitsiyalarning yarmini ta'minlamoqda. Xuddi shu ko'rsatkich ko'pgina viloyatlarda 70-90 foizni tashkil etmoqda [5]. Bundan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiyotda tutgan o'rni kattadir. Shuning uchun mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab tadbirkorlik faoliyati davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlandi. Natijada jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha jabhalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi yuqori darajaga ko'tarildi.

Ayniqsa, keyingi yillarda respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni rivojlantirish etib belgilanganligi ham bu sohaga e'tibor qay darajada ekanligidan dalolat beradi. Buning uchun mamlakatimizdagi islohotlarni amalga oshirish jarayonida aholi o'rtasida ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilash sohasidagi muhim vazifalardan biri sifatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, qulay ishbilarmonlik muhiti va investitsiya muhitini shakllantirish bo'yicha davlat dasturlari, shuningdek, hududlarni kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu dasturlarda asosan mahalliy hokimiyat vakillari tomonidan respublikamiz hududlarida mahalliy ishlab chiqarish korxonalarini eksportga jalb etish, joylarda eksport muammolarini o'rganib chiqish hamda yangi tovarlarni xorijiy bozorlarga eksportini rivojlantirish maqsadida har bir hududning eksport salohiyatini o'rganish yo'lga qo'yildi va shu asosda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan subyektlarga har tomonlama ko'maklashish nazarda tutilgan.

Bu ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, respublikamiz aholisining asosiy daromadlari, bandlik darajasi tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liqdir. Tadbirkorlik faoliyatining bu darajada

yuksalishiga esa, jamiyat a'zolari bilan bevosita davlatning ham o'rni kattadir. Sababi, tadbirkor shaxs va tadbirkorlik faoliyatining jamiyat sotsial strukturasi tugan o'rni davlatning olib borayotgan siyosatiga bog'liqdir. Ya'ni, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashi orqali uning jamiyatdagi statusini belgilab beradi.

Shuningdek, jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribasidan ko'rishimiz mumkinki, tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda oqilona soliq siyosatini olib borish muhim ahamiyatga egadir. Shundan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda ham tadbirkorlik faoliyatini yuksaltirishda davlat tomonidan soliq yukini kamaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilarga soliq yukini kamaytirish orqali bir qancha afzalliklarni ko'rishimiz mumkin. Bularga:

Birinchidan – davlat tomonidan soliq yukini kamaytirilishi tadbirkorlar tomonidan daromadlarni yashirish holatlari kam uchraydi. Tadbirkor tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning hajmini yashirmasdan hisobot materiallariga kiritilishi, tadbirkor tomonidan soliqlarni ko'p to'lanishiga olib keladi;

Ikkinchidan – davlat tomonidan bojxona soliqlarini kamaytirilishi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar uchun xorijiy mamlakatdagi hamkasblari bilan hamkorlik qilish uchun keng imkoniyatlarni yaratib beradi. Chunki, tadbirkor faoliyati davomida xorijiy davlatdagi tadbirkorlar bilan hamkorlik qilishi, uning ishlab chiqargan mahsulotlarini eksport qilishi uchun keng yo'l ochib beradi. Shuningdek, tadbirkor o'z faoliyatini yangi turdagi faoliyat bilan boyitadi. Masalan: tadbirkor o'z faoliyatini mamlakatimiz uchun yangi faoliyat turi bo'lgan virtual tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Tadbirkorlikning bu ko'rinishi bevosita zamonaviy bozorlarning rivojlanish tendentsiyalari, bozorlar globallasuvi, tovarlar sifatining o'sib borayotgan ahamiyati, ularning narxlar va mijozlar ehtiyojlari darajasi, iste'molchilar bilan barqaror munosabatlarning tobora muhim ahamiyati va yangi axborotni qo'llash darajasi o'sib borayotgan ahamiyati ta'sir ko'rsatadi;

Uchinchidan – tadbirkor faoliyatini davlat soliq siyosati orqali qo'llab-quvvatlanishi uning faoliyatini kengaytirish uchun ishtiyoqini o'stiradi. Bu esa, tadbirkor yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyati demakdir. Shu orqali tadbirkor mamlakatimizdagi muhim ijtimoiy muammolardan biri ishsizlik muammosini hal etishda ko'maklashadi. Chunki, tadbirkor nafaqat o'zi va oila a'zolarini, balki, jamiyat a'zolarini ham ish bilan bandligini ta'minlash uchun ko'maklashadi. Aholini bandligini ta'minlash esa, ularning ijtimoiy farovonligini ta'minlashning garovidir.

Shuningdek, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida, yangi tahrirda Soliq kodeksi [6] qabul qilindi. Unga muvofiq tadbirkorlarga qo'shimcha imtiyozlar yaratish maqsadida soliq turlarining qisqartirilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki, 2019-yildan boshlab, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar uchun soliq turlari 13 tadan 9 taga tushirildi [7]. Bu esa, tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning shakllaridan biri hisoblanadi. Davlat tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar uchun bunday soliq imtiyozlarini yaratib berilishi ularning faoliyatining gullab-yashnashi uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi. Chunki, har qanday davlatda soliq yukini ko'tarilishi jamiyatdagi parokandaliklarni keltirib chiqaradi. Davlatning soliq siyosati to'g'risidagi "Mashhur xitoy faylasufi Sun Szining hikmatli bir gapi bor: Soliqlarni haddan ziyod kuchaytirish turli talon-torojlikni keltirib chiqaradi, dushmanlarning boyishiga xizmat qiladi, oqibatda, davlat inqirozga uchraydi" [8, – B.67]. O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatini amalga oshirishda rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribasidan kelib amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, mamlakatimizning ijtimoiy-demografik xususiyatidan kelib chiqib, tadbirkorlarning tashabbuslarini, yoshlar va ayollar tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki, jamiyatimiz sotsial strukturasi yoshlar va ayollar ko'pchilikni tashkil etishi, bu qatlam vakillarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun davlat tomonidan keng imkoniyatlar yaratib berilishini taqozo etadi. Shu sababdan, respublikamizda amalga oshirilayotgan davlat siyosatining bosh maqsadidan biri ayollar va yoshlar o'rtasidagi tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish va uni rivojlantirishdan iboratdir. Chunki, jamiyat a'zolarining asosini shu

qatlam vakillari tashkil etishini inobatga olsak, ularni mehnat bilan bandligini ta'minlansa, jamiyatda vujudga kelayotgan quyidagi ijtimoiy muammolarni hal etishga yordam beradi:

Birinchidan – jamiyatdagi mehnatga layoqatli aholining katta qismi yoshlar qatlamiga to'g'ri keladi. Yoshlar o'rtasida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish orqali ularning ishsizlik muammosini hal etish mumkin. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ham yoshlar tadbirkorlik faoliyatiga to'xtalib shunday degan edi: “Biz yoshlarimizda tadbirkorlik tashabbusini rivojlantira olsak, ularga mablag'lardan to'g'ri foydalanishni o'rgatsak, nafaqat iqtisodiy, balki ko'plab ijtimoiy muammolarni ham hal etgan bo'lamiz” [9, – B.77]. Hozirgi kunda, mamlakatimizda yoshlar tadbirkorlik faoliyatiga berilayotgan e'tibor nafaqat, ularning iqtisodiy farovonligini ta'minlashga, balki ularni jamiyat uchun yot bo'lgan unsur (giyohvandlik, diniy ekstremizm va boshqa) larga bo'lgan moyilligini ham kamaytiradi.

Ikkinchidan – davlat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali jamiyatdagi qator ijtimoiy muammolarni hal etish imkoniyati vujudga keladi. Bularga, aholi daromadlarini oshirish imkoniyati yuzaga keladi. Shuning uchun, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini muntazam ravishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun davlat dasturlari asosida imtiyozli kreditlar bilan ta'minlanmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda banklarning o'rni kattadir. “Banklar – degan edi, Prezident Sh.Mirziyoyev – endi halqimizni tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka o'rgatishi va shunga yetaklashi lozim bo'ladi” [10, – B.158]. Bundan ko'rinib turibdiki, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilarni nafaqat imtiyozli kredit bilan ta'minlashi, balki ularni tadbirkorlikka bo'lgan ishtiyoqini ham shakllantirishi zarur.

Uchinchidan – tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi aholi qatlamini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida ularni kasbga qayta tayyorlash yo'lga qo'yilmoqda. Buning natijasida yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyati yuzaga keladi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun mamlakatimizda 2019-yilda 700 million dollar mablag' ajratildi [11].

Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan Savdo sanoat palatasi mavjud bo'lib, bu tashkilot aholini tadbirkorlik to'g'risidagi ijtimoiy-iqtisodiy bilimni shakllantirish orqali tadbirkor shaxslarning faolligini yanada oshirish va ularning o'z biznesini boshlashga da'vat etish, tadbirkorlik faoliyatining barcha bosqichlarida yuzaga kelayotgan muammolarni ortiqcha to'siqlarsiz hal etishga ko'maklashishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Shuningdek, Savdo sanoat palatasining qoshida jamiyat a'zolari o'rtasida tadbirkorlik bilimlarini shakllantirish maqsadida jami 6 ta o'quv markazlari, nodavlat ta'lim muassasasi tashkil etilgan bo'lib, ulardan 5 tasi [12] tegishli litsenziya asosida bugungi kunda o'z faoliyatini olib bormoqda.

XULOSA

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Yangi O'zbekistondagi islohotlar sharoitida tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki, bozor iqtisodiyoti hukmronlik qilayotgan jamiyat sotsial strukturasi tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy hayotni rivojlantiruvchi asosiy kuch vazifasini bajaradi. Bu esa, o'z navbatida aholining iqtisodiy ehtiyojlarini qondirib, ularning farovonligini ta'minlashga ko'maklashadi.

Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini tahlil qilish davomida quyidagi taklif va mulohazalarni olg'a surishni lozim topdik.

1. O'zbekiston sharoitida ushbu mamlakatlarning tadbirkorlik faoliyati va kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasidagi tajribalarini qo'llash maqsadga muvofiq, ammo ularning qo'llanilishida millatimiz urf-odatlarini va an'alariga, qolaversa, jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyotiga putur yetmasligi lozim.

2. O'zbekiston jahon hamjamiyatidagi har bir mamlakat bilan o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar o'rnatgan. Chet el mamlakatlari bilan kichik biznes va tadbirkorlik sohasidagi aloqalarni yanada rivojlantirish hamda teng huquqli munosabatlar o'rnatib, ijtimoiy-iqtisodiy manfaatdorlikka erishish imkoniyatidan foydalanish lozim. Bu esa, yurtimizda biznes elitaning xalqaro miqyoslardagi faoliyatini ta'minlashga olib keladi.

3. O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishda innovatsion faoliyatni kuchaytirish zarur bo'lganligi uchun rivojlangan mamlakatlarning tajribalaridan keng

ko‘lamda foydalanish mumkin. Xususan, Germaniya, Yaponiya va AQSHning bu boradagi tajribalarini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

4. Hozirgi globallashtirgan jahon hamjamiyatida ekologik toza mahsulot, xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, ekologiyani yaxshilashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar rivojlangan mamlakatlarda keng ko‘lamlarda amalga oshirilganligini e‘tirof etib, shuni qayd etish lozimki, bizning mamlakatimizda ham ekologik zararlanishning oldini oladigan minitexnologiyalarni keng qo‘llash zaruriyati mavjud. Jumladan, Germaniya va Yaponiyaning minitexnologiyalarini mamlakatimizda keng joriy etib, kichik biznesni yanada rivojlantirish mumkin.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Hamroyev H.R. Tadbirkorlik asoslari. – Toshkent: Yangi nashr, 2010. – 360 b.
2. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.39.
3. Мирзиёев Ш. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 67.
4. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 68.
5. Мирзиёев Ш. “Олий Мажлисга Мурожаатномаси” Халқ сўзи газетаси. 2018 йил 29 декабрь. № 271-272 сони.
6. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси. <https://lex.uz/docs/4674902>
7. Мирзиёев Ш. “Олий Мажлисга Мурожаатномаси” <https://uza.uz/uz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
8. Мирзиёев Ш. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 67.
9. Мирзиёев Ш. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 77.
10. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 158.
11. Мирзиёев Ш. “Олий Мажлисга Мурожаатномаси” <https://uza.uz/uz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
12. Ўзбекистон Республикаси Савдо-саноат палатасининг 2018 йил 1-чораги фаолияти натижалари тўғрисида. Тошкент – 2018. <http://www.chamber.uz>

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
VOLUME 7, ISSUE 1

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000